



XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

1-bo'lim	Modda/aralashma va kompaniya/korxonasi nomi
----------	---

1.1 Mahsulot identifikatori

Kimyoviy nomi (IUPAC bo'yicha)	Mavjud emas
Mahsulot nomi:	KNAUF-Fugen
Mahsulot kodi:	2520200000

1.2 Mahsulotning belgilangan vazifasi hamda foydalanishdagi tavsiya etilgan cheklolar

Knauf-Fugen - o'zgartiruvchi qo'shimchalar qo'shilgan biriktiruvchi gips asosidagi quruq shpaklyovka aralashmasi. Quyidagi vazifalar uchun mo'ljallangan: maxsus o'zaklovchi tasmani qo'llagan holda gipskarton choklarini to'ldirish; gipskarton qoplamalari, plitalar, yassi beton va suvalgan yuzalarni uzluksiz shpaklyovkalash; karkassiz berkitmalar tizimlaridagi gips qoplamalar nuqsonlarini qoplash; gipsdan yasalgan bezak elementlarini yopishtirishga mo'ljallangan. Uzluksiz shpaklyovkalashda bitta qatlam qalinligi: 1 mm dan - 5 mm gacha.

1.3 Xavfsizlik ma'lumotlarida yetkazib beruvchi haqida batafsil axborot

Ishlab chiqaruvchi:	"BUXOROGIPS" AJ QK
Ishlab chiqaruvchi manzili:	O'zbekiston, Buxoro viloyati, 200707, Kogon shahri, Konchilar ko'chasi, 1-uy
Telefon / faks:	+ 99865)522-63-29, mob. (+99891)440-77- 47 / (+99865)527-70-01
El.pochta:	info-uz@knauf.com
Veb-sahifa:	www.knauf.uz
Xavfsizlik pasportiga mas'ul shaxs:	Dmitriy.Deripalko@knauf.com

1.4 Shoshilinch aloqa uchun telefon:

Tez tibbiy yordam:	103
Davlat yong'in-qutqaruv xizmati:	102

XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

2-bo'lim	Xavf-xatar identifikatsiyasi
----------	------------------------------

2.1. Moddalar va aralashmalar tasnifi

1272/2008-son me'yoriy-huquqiy hujjatga (Yel) muvofiq

Aralashma tasnifi:

Moddiy-kimyoviy xavf-xatar:

Inson salomatligi uchun xavf:

Zararli atrof muhit xavfi: ta'sir

Tasniflanmagan

Normal shart-sharoitlarda qo'llanganda xavfli ta'siri aniqlanmagan

Aralashma inson salomatligi uchun xavfli deb tasniflanmagan

Aralashma atrof-muhit uchun xavfli deb tasniflanmagan:

-ozon qatlamiga zarar yetkazmaydi

-suvni o'tkir va surunkali tarzda zaharlamaydi.

2.2 Tamg'alash elementlari

1272/2008-son me'yoriy-huquqiy hujjatga (Yel) muvofiq ogohlantiruvchi tamg'alash haqida ma'lumot

Xavf piktogrammasi



“Ehtiyot bo'ling” (“Warning”)

Signal so'zi:

Xatar fazasi:

Xavfning qisqacha tavsifi (H-faza)

Xavfsiz foydalanish (bartaraf etish) bo'yicha choralar:

-P264: Ishdan keyin qo'lni yaxshilab yuviladi

-P270: Mahsulotdan foydalanishda chekish, yeyish va ichish mumkin emas

-P281: Tegishli shaxsiy himoya vositalaridan foydalaniladi
-H305: Ichga yutganda va nafas olganda zarar keltirishi mumkin;

-P301+P330+P331: Yutib yuborganda: og'iz chayqaladi. Majburiy qayt qilish mumkin emas.

H316: teriga tushganda yengil achishtiradi (Causes mild skin irritation)

H319: ko'zga tushganda sezilarli achishtiradi;(Causes serious eye irritation)

H333: nafas olganda zararlashi mumkin; (May be harmful if inhaled)

2.3 Boshqa ehtimoliy xatarlar

Barqarorlik, bioakkumulyativlik, toksinlik (PBT) yoki yuqori barqarorlik va bioakkumulyativlik mezonlari:

Aralashma va uning komponentlari vPvB kabi baholanadigan hamda (Yel)1907/2006 Reglamentining XIII ilovasiga muvofiq baholangan PBT yoki vPvB mezonlariga mos kelmaydigan moddalardan xoli.

2/ 12 sahifa



XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

Tasnifga kiritilmagan boshqa xavflar

Normal sharoitlarda qo'llanganda xavfli ta'siri kuzatilmaydi.
Ammo silliqlaganda atmosferaga chang chiqaradi.
Ko'p miqdordagi chang teri, ko'z, burun, tomoq va yuqori nafas yo'llarini qichishtirishi mumkin.
Tegishli ventilyatsiyani ta'minlash va changda ko'p nafas olmaslikka harakat qilish lozim.

3-bo'lim | Tarkibi haqida ma'lumot

Kimyoviy nomi (IUPAC bo'yicha):
Kimyoviy formula:
Tarkibning umumiy tavsifi:

Mavjud emas
Mavjud emas
KNAUF quruq qurilish aralashmalari har xil o'zgartiruvchi qo'shimchalar va to'ldiruvchilarga ega biriktiruvchi gips asosida tayyorlanadi.

1272/2008-son Reglamentga (Yel) muvofiq ingrediyentlar deklaratsiyasi

Aralashmada Yel Reglamenti chegarasidan chiquvchi xavfli moddalar mavjud emas.

Kimyoviy nomi	Kons., %	Ish joyi havosidagi gigiyenik normativlar		№ CAS	№Yel
		RBChK r.z., mg/m	Xavf sinfi		
Ikki suvli kalsiy sulfat; CaSO ₄ *2H ₂ O	≤98,566	2(a)	3	7778-18-9	231-900-3
O'zgartiruvchi qo'shimchalar: (Compound 2530 FF) Oksipropillangan metilsellyuloza	≤1,395	10(a)	4	9004-65-3	618-389-6
Sekinlatkich: (PLAST RETARD PE) Tuzli kalsiy bilan degradatsiyalangan poliamidlar aralashmasi	≤0,039	Belgilanmagan	yo'q	87-69-4	201-766-0
Izoh: "A" - aerazol.					

Ish joyidagi ta'sir chegarasi, agar mavjud bo'lsa, 8-bo'limda berilgan

[1] Sog'lik yoki atrof muhit uchun xavfli deb tasniflangan moddalar. [2] Ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalar o'rnatilgan moddalar

3/12 sahifa



XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

4-bo'lim	Birinchi yordan ko'rsatish bo'yicha choralar
-----------------	---

4.1 Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha choralar tavsifi

Umumiy ma'lumot:

Shifokorga uchraganda ushbu xavfsizlik pasporti ko'rsatiladi.

Nafas olish:

Ko'p konsentratsiyada nafas olganda tomoq qichishi, yo'tal, aksirishga olib keladi. Changda ko'p nafas olmaslikka harakat qilish kerak. Toza havoga chiqish lozim. Xotirjamlik saqlanadi. Agar ta'sir belgilari namoyon bo'lishda davom etsa, shifokorga uchrash lozim. Hushini yo'qotgan kishining og'ziga hech narsa solmaslik kerak.

Ko'zga tegish holatida:

Ko'zni katta ochgan holda 15 daqiqa davomida ko'p suv bilan ko'z darhol yuviladi. Agar ta'sir belgilari namoyon bo'lishda davom etsa, ko'z shifokoriga uchrash lozim.

Teriga tegishi:

Tekkan joyi yuvib tashlanadi. Agar ta'sir belgilari sezilishi davom etsa, shifokorga murojaat qiling. Og'iz chayqaladi. Tibbiy maslahatsiz qayt qilinmasin. Agar ta'sir simptomlari Yutib yuborilganda: davom etsa, shifokorga murojaat qilinsin.

4.2 O'tkir va o'tkazib yuborilgan eng asosiy belgilari va oqibatlari

Ko'zga tegishi:

Chang ko'zga tegishi mexanik achishtirishga olib kelishi mumkin. Belgilari terini qizartirishi, qichishish, achishish va og'riq keltirib chiqarishi mumkin

Teriga tegishi:

Noxush oqibatlari kuzatilmaydi.

Nafas olish:

Noxush oqibatlari kuzatilmaydi.

Ichga yutish:

Ichga yutib yuborganda oshqozon-ichakda og'riq qo'zg'ashi, ko'ngil aynishi, qayt qilish va ich ketishiga olib kelishi mumkin.

4.3 Shoshilinch tibbiy yordam va maxsus davolash zaruriyati uchun ko'rsatmalar

Shifokorga tavsiya: har qanday ta'sir oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan simptomatik davolash.

5-bo'lim	Yong'in xavfsizligi choralar
-----------------	-------------------------------------

5.1 O't o'chirish vositalari

Yaroqli o't o'chirish vositalari:

Mahsulot tez yonuvchan emas: Sharoitga va atrofdegai materiallarga qarab o't o'chirish vositalaridan foydalaning.

Yaroqsiz o't o'chirish vositalari:

Bu mahsulotga aloqador emas.

Tevarak-atrofga mos kelmaydigan o't o'chirish vositalaridan foydalanmang

4/ 12 sahifa



XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

5.2 Modda yoki aralashmadan kelib chiqadigan asosiy xavf-xatarlar

Issiqlikdan buziluvchi xavfli mahsulotlar: Mahsulotlar buzilishi yoki oksidlanishi olov tabiati va tevarak-atrofdagi materiallarga bog'liq.

5.3 O't o'chiruvchilarga tavsiyalar

O't o'chirishning maxsus usullari: Bu mahsulotga aloqador emas
O't o'chiruvchilar uchun himoya jihozlari: Bu mahsulotga aloqador emas. Olovbardosh himoya anjomi kiyilsin. Avtonom nafas olish apparatlari ishlatilsin.

Boshqa ma'lumotlar:

O't o'chirishda ishlatilib kirlangan suv va yong'in qoldiqlari milliy va mahalliy me'yoriy hujjatlarga muvofiq utilitatsiya qilinadi.

6-bo'lim Halokat chiqindilarini bartaraf qilish bo'yicha choralar

6.1 Shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash, himoya choralari va halokatli vaziyatda harakatlar tartibi bo'yicha choralar

Halokat brigadasidan boshqalar uchun: Tegishli ta'lim olmasdan shaxsiy hayotingizga xavf tug'diruvchi hech qanday xatti-harakat qilmang.
Halokat brigadasi uchun: Changitmang. Teriga tegmaslikka harakat qiling. Yaxshi ventilyatsiyani ta'minlang. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tavsiya qilinadi (8-jadval).

6.2 Atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar

Mahsulot kanalizatsiyaga / yer yuzasi suvlariga / grunt suvlarga tushishiga yo'l qo'ymang

6.3 Tarqalib ketishining oldini olish va tozalash materiallari hamda usullari

Quruq mexanik usulda to'planadi va vazifasiga ko'ra ishlatiladi yoki ikkilamchi qayta ishlashga yuboriladi yo bo'lmasa 13-bo'limga muvofiq utilitatsiya qilinadi. Chang hosil qilmang.

6.4 Boshqa bo'limlarga havola

Eslatma: favqulodda holatda bog'lanish uchun 1-bo'limga qarang, shaxsiy himoya vositalari va chiqindilarni utilitatsiya qilish haqida ma'lumot olish uchun mos ravishda 8 va 13-bo'limlarga qarang.

7-bo'lim Foydalanish va saqlash

7.1 Xavfsiz foydalanish bo'yicha choralar

Teriga va ko'zga tushishidan ehtiyot bo'ling. Yaxshi ventilyatsiyani ta'minlang. Chang hosil qilmang. Changda ko'p nafas olmaslikka harakat qilish kerak. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalaning (8-jadval). Sanoat gigiyenasi va xavfsizlik qoidalariga muvofiq foydalaning.

5/ 12 sahifa

XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

7.2 Har qanaqa nomuvofiqlikda xavfsiz saqlash uchun sharoit

Aralashmalar asl qadog'ida quruq, salqin va yaxshi shamollatiladigan joyda saqlanishi kerak. Quruq aralashmali qopchalarni taglikka zich joylashtirib saqlashda qatorlar orasidan bemaol o'tish uchun joy qoldiriladi. Begona aralashmalar va namlik sababli buzilishidan asraladi.

Sovuq, yuqori harorat va quyosh nurlarining to'g'ri tushishidan himoya qilinadi.

Aralashmaga to'g'ri kelmaydigan moddalar va materiallar: Quruq aralashmani tayyor mahsulot sifatida o'rtacha ishlatmagunga qadar suv qo'llamang. Mahsulotga suv tegsa, qotib qoladi

Yaroqlilik muddati o'tgandan keyin foydalanmang.

7.3 Oxirgi maxsus qo'llanish sohalari

Shpaklyovka sifatida gipskarton plitalar choklari va yuzalar uchun qo'llaniladi.

8-bo'lim Ta'sir nazorati / shaxsiy himoya vositalari

8.1 Nazorat parametrlari

Amaldagi ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalar:

Substansiya	Turli ma'lumot manbalari, mg/m ³	GOST 12.1.005-88,mg/m ³
Ikki suvli kalsiy sulfat; CaSO ₄ *2H ₂ O	6 ^a (MAK(TRGS 900))	-
Oksipropilen metilsellyuloza	1,25 ^a (MAK(TRGS 900))	-

^a- nafas bilan yutiladigan zarralar fraksiyasi

Ish joylari ventilyatsiyasining oqimli-tortish tizimi, mahalliy havo tortish tizimlari. Mahsulotning ish zonasida ochiq havoda saqlanishini muntazam nazorat qilish. Binolarda mahsulot bilan ishlaganda jihozlar, sig'imler va bog'lovchi uzellarni germetiklashtirish ko'zda tutilishi kerak.

8.2 Ta'sir nazorati vositalari

Quyidagi texnik nazorat chorolari ko'riladi:

Shaxsiy himoya vositalari:

Nafas olish a'zolari himoyasi:

Ingrediyentlar konsentratsiyasini ruxsat etilgan chegaraviy qiymatdan past saqlab turishga yetarli darajada yaxshi ventilyatsiyani ta'minlang. Chang hosil qilmang.

Chang konsentratsiyasi yuqori bo'lganda, FF1/FF2/FFP3 chang filtriga ega mos nafas olish niqobini ishlatning

6/ 12 sahifa

XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

Qo'llarni himoyalash:

Himoya kremlari qo'lning ochiq qismlarini asrashi mumkin, ammo ta'sir qilib bo'lgan bo'lsa qo'llash kerak emas. Himoya qo'lqoplari (EN 388).



Teri va tanani himoyalash:

Maxsus kiyim, maxsus poyabzal, rezina qo'lqoplar, qo'lqoplar, PM-1 silikon turidagi himoya pastalari yoki surtma

Ko'z / yuzni himoyalash:

Himoyaviy germetik ko'zoynak (EN 166).



Gigiyenik choralar:

Xavfsizlik va gigiyena choralari rioya qiling. Ishdagi tanaffusdan oldin va ish kuni oxirida qo'lni yuving. Teriga va ko'zga tushishidan ehtiyot bo'ling

Atrof-muhitga ta'sirini nazorat qilish choralari:

Atrof-muhitni iflos qilmang. 6 va 12-bo'limga qarang

9-bo'lim | Tabiiy va kimyoviy xususiyatlari

9.1 Asosiy tabiiy va kimyoviy xususiyatlari bo'yicha ma'lumot

Turi:	-Kukun
Moddiy holati: Rangi:	Oq /och jigarrang
Hidi:	Hidsiz
Hidni qabul qila boshlashi:	Ma'lumotlar mavjud emas
pH:	Quruq mahsulotga kirmaydi. Suspenziya suvda neytral
Erish/muzlash harorati Qaynash boshlanish nuqtasi va qaynash intervali:	Qo'llab bo'lmaydi
Alangananish harorati:	Qo'llab bo'lmaydi
Bug' hosil qilish intensivligi:	Qo'llab bo'lmaydi
Alangananuvchanlik (qattiq, gaz hosil qilgan Alangananmaydigan. holat):	Qo'llab bo'lmaydi.
Alangananuvchanlik yoki portlovchanlikning quyi/yuqori chegaralari:	
Bug' hosil qilish bosimi: Bug' zichligi:	Qo'llab bo'lmaydi.



O'rtacha zichlik:
Eruvchanlik:

Qo'llab bo'lmaydi
780 kg/m³

7 / 12 sahifa

XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

Taqsimlanish koeffitsiyenti (H-oktanol/suv):
O'zi alanganish harorati: Buzilish harorati (gips uchun):
Qovushoqlik:
Portlash xususiyatlari: Oksidlanish xususiyatlari:
Zarra o'lchami:
Zarralarning o'lchami bo'yicha taqsimlanishi:
Zarralar shakli:

Suvda-3g/l(20°C).
O'zi alanganish harorati: Buzilish harorati (gips uchun):
CaSO₄ + 0,5H₂O da 140°C dan, CaO va SO₃ da 1000°C dan
Qo'llab bo'lmaydi
Qo'llab bo'lmaydi
Qo'llab bo'lmaydi

Qo'shimcha ma'lumot: Mavjud emas

SGS	Donadorlik tarkibi (g'alvirda qolgani)maksimal,			
	5 mm	1,25 mm	0,63 mm	0,200 mm
KNAUF- Fugen	0	0	0,4	0,04

9.2 Boshqa ma'lumotlar
Ma'lumotlar mavjud emas

10-bo'lim Barqarorligi va kimyoviy xususiyati

10.1 Kimyoviy faolligi

Risoladagidek sharoitda foydalanganda va saqlaganda reaksiyalar kutilmaydi.

10.2 Kimyoviy barqarorligi

Risoladagidek sharoitda foydalanganda va saqlaganda barqaror.

10.3 Xavfli reaksiyalar ehtimoli

Risoladagidek sharoitda foydalanganda va saqlaganda xavfli reaksiyalar kutilmaydi.

10.4 Quyidagidek sharoitlardan saqlanish kerak:

Yog'in-sochinlar ta'siridan, shuningdek, himoya qadog'ini mexanik shikastlardan va butunligiga zarar yetishidan. Namlikdan saqlash lozim.

10.5 Mos kelmaydigan materiallar

Ma'lum emas

10.6 Buzuvchi xavfli mahsulotlar:

Risoladagidek sharoitda foydalanganda va saqlaganda buzilish kutilmaydi.



XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq

Mahsulot identifikatori: Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen

Versiya: 2

Sana: 2026-05-01

11-bo'lim Toksikologik ma'lumot

Aralashma toksikologik tekshiruvdan o'tmagan. Tarkibiy qismlari xususiyatlari haqidagi axborotga asoslanib keltirilgan ma'lumotlar uchun asoslar belgilangan:

11.1 Toksik ta'siri haqida ma'lumot

O'tkir toksiklik:

yutib yuborilganda, teri va tanaga tekkanda, nafas olganda: Toksik yoki zararli ta'siri aniqlanmagan.

Terini zararlashi/achishtirishi: bu mahsulotga tegishli emas. Shu bo'limning pastidagi ma'lumotga qarang

Ko'zni zararlashi/achishtirishi:

bu mahsulotga tegishli emas.

Respiratorli va teri sezuvchanligi:

bu mahsulotga tegishli emas.

Ko'p karrali ta'sirda toksiklik:

toksik ta'siri ko'zda tutilmagan.

Kanserogenlik:

Mahsulotda kanserogen deb tasniflangan tarkibiy qismlar mavjud emas.

Embrional hujayralarning mutageniligi:

Mahsulotda mutagenli deb tasniflangan tarkibiy qismlar mavjud emas.

Reproduktiv toksiklik:

Mahsulotda reproduktiv tizimga toksik deb tasniflangan tarkibiy qismlar mavjud emas.

Ehtimoliy ta'sir ko'rsatish yo'llari haqida ma'lumot:

nafas olganda, teriga, ko'zning shilliq qavatiga tushib, yutib yuborilganda faollashishi mumkin.

Jismoniy, kimyoviy, toksikologik xususiyatga ega belgilari:

Ko'zga tegishi:

Chang ko'zga tushganda mexanik tarzda achishtirishi mumkin. Belgilari qizarish, teri sirti qichishi va og'riqni o'z ichiga olishi mumkin.

Teriga tegishi:

teri yengil achishishi mumkin. Bir vaqtning o'zida mexanik ta'siri effektini oshirishi mumkin.

Nafas olish:

Chang nafas olish a'zolarini achishtirishi mumkin. Yo'taltirishi mumkin.

Ichga yutish:

Salbiy oqibatlari aniqlanmagan. Ichga yutganda oshqozon-ichak achishtirishi, ko'ngil aynishi, qusish va ich ketishini keltirib chiqarishi mumkin.

Kechikkan va bevosita ta'siri, shuningdek, qisqa muddatli va uzoq ta'sirining surunkali oqibatlari:

Teriga uzoq tegishida teridagi namlik bilan ta'sirlashib, quritib qo'yishi mumkin.

Boshqa ma'lumotlar:

Bizdagi bilim va tajribaga ko'ra mahsulotni tavsiyalarga muvofiq to'g'ri ishlatganda inson salomatligiga biror-bir xavfli ta'siri kutilmaydi.

12-bo'lim Ekologik ma'lumot

12.1 Toksiklik

Eko-toksiklik: tirik organizmlarning tabiiy ifloslanishini keltirib chiqarishi mumkin. Tabiatan toksik hisoblanmaydi.

Qo'shimcha ma'lumot mavjud emas.

12.2 O'simlik qatlamidagi barqarorlik hamda kimyoviy va biologik buzilishga moyilligi

Asosiy tarkibiy qismlari amalda biologik buzilishga moyil emas yoki osongina buzilmaydi.

12.3 Bioakkumulyatsiyaga moyilligi

Jonli organizmlarda to'planib qolishi aniqlanmagan.



XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

12.4 Tuproqdagi harakatchanligi

Mahsulot amalda har qanday tabiiy sharoitlarda quruq aralashma bo'lib qoladi. Tuproqqa tushganda zarra bo'lib yutilib ketadi. Tabiiy va kimyoviy xususiyatlariga ko'ra mahsulotning tuproqdagi harakatchanligi past. Suv bilan aralashmang/belgilangan vazifasiga ko'ra tayyor mahsulot sifatida darhol bevosita ishlatilishi kerak.

12.5 PBT va vPvB baholash natijasi

Aralashma va uning tarkibiy qismlari mezonlarga javob bermaydi.

12.6 Boshqa noxush oqibatlar

Mahsulot uchuvchan bo'lmagan va atmosferaga katta miqdorda chiqarilmaydigan quruq tarkibiy qismlar aralashmasidir. Ozon qatlamini yemirishi, fotokimyoviy ozon hosil qilishi yoki global isishga ta'siri ko'zda tutilmagan. Mahsulot to'g'ri qo'llanganda atrof-muhitga noxush ta'siri kutilmaydi.

13-bo'lim Ko'rsatmalar va chiqindilarni ko'mish

13.1 Chiqindilarni qayta ishlash usullari

Maishiy chiqindilar bilan birga utilitatsiyalash taqiqlanadi. Mahsulot kanalizatsiya tizimiga tashlanishi mumkin emas. Maxsus jihozlangan joyda va maxsus konteynerlarda to'planib, shu turdagi chiqindilar bilan ishlashga huquqi (litsenziyasi) bo'lgan korxonatashkilotga utilitatsiya uchun yuboriladi. Tevarak-atrofga, kanalizatsiyaga yoki oqar suvga tashlamang. Mahsulot qoldig'i va ishlatilgan qadog'i milliy va mahalliy me'yoriy hujjatlarga muvofiq utilitatsiya qilinadi. Quyida keltirilgan ma'lumot yetkazma holatidagi mahsulotga yoki qurilishda ishlatilgan shunaqa mahsulotga tegishli bo'lib, 170802 sinfidagi qurilish chiqindilari tarkibiga kiradi. Mahsulotning nojo'ya qo'llanishi, masalan, boshqa materiallar bilan aralashirilishi, chiqindilar tasnifiga va tegishli utilitatsiya qilish usuliga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Chiqindilar tasnifi

Mahsulot:

1708-guruh - Gips asosidagi qurilish materiallari. 170802-sinf - Gips asosidagi 170801-sinfga mos kelmaydigan qurilish materiallari. Qayta ishlashga yuborish qanchalik mumkin bo'lgan qoldiqlar.

Qadoqlanishi:

Xavfsiz chiqindilar sifatida utilitatsiya qilinadi.

Guruh: 1501. Qadoq (alohida yig'ilgan, maishiy shaklda tayyorlangan qadoqlar ham kiradi). Sinf 150101-Polietilen qatlamli qog'oz va kartondan qadoq. 150106-Aralash qadoq

Chiqindilarni utilitatsiya qilish

Amaldagi me'yorlarga muvofiq utilitatsiya qilish tegishli litsenziya bilan amalga oshiriladi. Maishiy chiqindilar bilan birga utilitatsiya qilish taqiqlanadi. Mahsulotni kanalizatsiya tizimiga tashlash mumkin emas. Maxsus jihozlangan joyda va maxsus konteynerlarda to'planib, shu turdagi chiqindilar bilan ishlashga huquqi (litsenziyasi) bo'lgan korxonatashkilotga utilitatsiya uchun yuboriladi. Tevarak-atrofga, kanalizatsiyaga yoki oqar suvga tashlamang.

Mahsulot qoldig'i va ishlatilgan qadog'i milliy va mahalliy me'yoriy hujjatlarga muvofiq utilitatsiya qilinadi

Mahsulot qoldig'i rakovina va unitazga tashlanmaydi. Suv qo'shiladi va qotib qolgach, mahalliy qoidalarni hisobga olgan holda mahalliy qurilish chiqindixonasiga tashlanadi, ozrog'ini maishiy chiqindi bilan birga utilitatsiya qilsa bo'ladi. To'la tozalangan qadoq qoplarini ikkilamchi xom ashyo yig'ish tizimiga topshirish mumkin.

Boshqa ma'lumotlar:

oqar suv yoki kanalizatsiya tizimiga oqizish mumkin emas.

10/ 12 sahifa

XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01
14-bo'lim	Tashish haqida ma'lumot	

14.1 UN raqami	Tasniflanmagan
14.2 BMT aniq yuklash nomi	Tasniflanmagan
14.3 Transport xavfsizlik sinf(lar)i	Tasniflanmagan
14.4 Qadoqlash guruhi	Tasniflanmagan
14.5 Ekologik xavflar	Sezilmaydi
14.6 Foydalanuvchi uchun maxsus ehtiyotkorlik choralari	Shart emas
14.7 Idishsiz tashish kemalar suvni ifloslantirishi oldini olish bo'yicha Xalqaro konvensiyaning II-ilovasiga va xavfli kimyoviy yuklarni quyib tashish bo'yicha Xalqaro kodeksiga ko'ra amalga oshiriladi	Qo'llab bo'lmaydi.

Boshqa ma'lumotlar:

Xalqaro yuk tashish qoidalariga ko'ra xavfsiz yuk.

15-bo'lim	Normativ ma'lumotlar
------------------	-----------------------------

15.1 Modda yoki aralashmaga mo'ljallangan xavfsizlik, sog'liqni saqlash va atrof-muhit himoyasi to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar/qonunchilik aktlari

- Yevropa parlamenti va Kengashi (REACH) (Yel) № 1907/2006 Reglamenti
- Kimyoviy moddalarni qayd qilish, baholash, ruxsat berish va cheklash bo'yicha Yevropa parlamenti va Kengashi № 1272/2006 (Yel) Reglamentiga (REACH) tuzatish kirituvchi 2015-Yil 28-maydagi 2015/830 (Yel) Komissiya Reglamenti
- 67/548/EEC va 1999/45/EC direktivaga tuzatish kirituvchi va bekor qiluvchi, shuningdek, №1907/2006 (Yel) Reglamentga tuzatish kirituvchi Yevropa parlamenti va Kengashining 2008-yil 16-dekabrda moddalar va aralashmalarni tasniflash, tamg'lash va qadoqlash haqida 1272/2008 (Yel) Komissiya Reglamenti.
- 2013-yil 8-maydagi texnik va ilmiy taraqqiyotga moslashtirish uchun Yevropa Parlamenti va Kengashning moddalar va aralashmalarni tasniflash, tamg'lash va qadoqlash bo'yicha (Yel) №1272/2008 reglamentiga tuzatishlar kirituvchi (Yel) № 487/2013 Komissiya Reglamenti
- 2013-yil 2-oktyabrda texnik va ilmiy taraqqiyotga moslashtirish uchun Yevropa Parlamenti va Kengashning moddalar va aralashmalarni tasniflash, tamg'lash va qadoqlash bo'yicha (Yel) №1272/2008 reglamentiga tuzatishlar kirituvchi (Yel) № 944/2013 Komissiya Reglamenti
- GOST 12.3.002-2014 Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST) Ishlab chiqarish jarayonlari. Umumiy xavfsizlik talablari.
- GOST 12.0.004-2015 Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST). Mehnat xavfsizligini o'qitishni tashkil qilish. Umumiy qoidalar.
- GOST 12.4.041-2001 Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST). Filtrlovchi nafas olish a'zolari shaxsiy himoya vositalari. Umumiy texnik talablar.
- GOST 12.4.011-2001 Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST). Ishlovchilar himoya vositalari. Umumiy talablar va tasnif.
- O'zR sanitar qoidalar va normalar № 0128-02 O'zbekiston Respublikasi sharoitida toksik sanoat chiqindilarini gigiyenik tasniflagich.
- 05.04.2022-yildagi "Chiqindilar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.
- 06.05.1993-yildagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi №362-II O'zbekiston Respublikasi qonuni.
- O'zDSt 1017:2002 Favqulodda holatlarda xavfsizlik Texnogen favqulodda holatlar manbalari. Shikastlovchi omillar nomenklaturasi va tasnifi hamda ularning parametrlari.
- O'zDSt 1018:2002 Favqulodda holatlarda xavfsizlik Tabiiy favqulodda holatlar manbalari. Shikastlovchi omillar. Shikastlovchi ta'sirlar parametrlari nomenklaturasi.



XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son Reglamentning (Yel) II ilovasiga muvofiq		
Mahsulot identifikatori:	Biriktiruvchi gipsli quruq qurilish shpaklyovka aralashmasi Knauf- Fugen	
	Versiya: 2	Sana: 2026-05-01

15.2 Kimyoviy xavfsizlik bahosi

Aralashmaning asosiy tarkibiy qismi (kalsiy sulfat) baholangan. To'liq ma'lumot (ECHA) ma'lumotlar bazasida mavjud

16-bo'lim	Boshqa ma'lumotlar
------------------	---------------------------

Qisqartmalar:

PBT - Barqaror bioakkumulyativ, toksik (modda) vPvB - o'ta barqaror bioakkumulyativ (modda)

MAK - ish joyi havosidagi chegaraviy ruxsat etilgan konsentratsiya

1272/2008-son Reglamentga (Yel) muvofiq aralashmalarning tasnifini olish uchun foydalanilgan tasnif va protsedura:

Tasnif:

Tasniflanmagan

Tasniflash protsedurasi:

Hisoblash usuli

Asosiy ma'lumot manbalari:

Xavfsizlik pasporti tahririyati haqida ma'lumot:

Mahsulotning dastlabki materiallarining xavfsizlik pasporti. Ushbu xavfsizlik pasporti "BUXOROGIPS" AJ QK tomonidan tayyorlangan

Savollar uchun:

Shaknoz.Gulamova@knauf.com

Javobgarlikni rad etish:

Ushbu xavfsizlik pasportida keltirilgan ma'lumotlar mazkur ishlab chiqaruvchiga asoslangan va to'g'ri hisoblanadi, ammo keng qamrovlilikka da'vo qilmaydi va faqat qo'llanma sifatida foydalanilishi kerak.

Ish beruvchilar bu ma'lumotlardan faqat o'zlari to'plagan boshqa ma'lumotga qo'shimcha sifatida foydalanishi kerak hamda tegishli tarzda foydalanish va ishchi-xodimlarning xavfsizligi, salomatligini himoyalash uchun bu ma'lumotlarning yaroqliligi haqida mustaqil mulohaza qilishi zarur.

Ushbu ma'lumotlar kafolatsiz taqdim qilinadi va mahsulotdan ushbu materialning xavfsizlik Pasportiga mos kelmaydigan holda yoki boshqa mahsulot bilan yo jarayonda har qanday foydalanishda foydalanuvchi javobgardir.

Ushbu hujjat mazmunini yoki boshqa preparatlar bilan aloqasini o'zgartirish taqiqlangan. Matn mazmunini o'zgartirmasdan nusxa olishga ruxsat beriladi.